

## YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY SPORTNI RIVOJLANISHI

**Xamidjonov Abdunazar Usubjon o'g'li**

Namangan davlat universitei Sport faoliyati yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: [khamidjonovabdunazar@gmail.com](mailto:khamidjonovabdunazar@gmail.com)

### ANNTOTSIYA

Ushbu maqola yangi O'zbekistonda milliy sport turini rivojlanishidagi qonun asoslari hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy madaniyat, davlat siyosati, qonun, qonun osti, salomatlik, umumiyl, maxsus, estetik, axborot, ta'lim va tarbiya, funktsiya, amaliy, sport, rekriaktiv, sog'lomlashtirish, reabilitatsiya.

### DEVELOPMENT OF NATIONAL SPORTS IN NEW UZBEKISTAN

**Khamidjonov Abdunazar Usubjon O'g'li**

Student of the 2nd stage of sports activities of Namangan State University

### ABSTRACT

this article provides information on the basics of the law on the development of national sports in the Republic of Uzbekistan and reforms in the field of physical education and sports in our country

**Keywords:** Physical Culture, public policy, law, underground, health, function, general, special, aesthetic function, regulatory function, information function, educational and educational function, practical function, sports function, Recriative and wellness-rehabilitation function.

### РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СПОРТА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

**Хамиджанов Абдуназар усубжон оглы**

Наманганская государственная университет спортивная  
деятельность студент 2 курса

## АННОТАЦИЯ

в этой статье представлена информация о законодательных основах развития национального вида спорта в новом Узбекистане, а также о реформах в области физической культуры и спорта.

**Ключевые слова:** физическая культура, государственная политика, право, подзаконное, здоровье, общее, специальное, эстетическое, информационное, образование и воспитание, функциональное, практическое, спортивное, рекреационное, оздоровительное, реабилитационное.

**Dolzarblii.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sport sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son farmoni hamda “Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 18-fevraldagi PG-136-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi,[1] 2017-yil-2 oktyabrdagi PQ-3306-son “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-martdagi 122-son “Sport turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari,[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, hamda shu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot mavzusi muayyan darajada xizmat qiladi.[3]

## TADQIQOT NATIJALARI VA UNING MUHOKAMASI

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommalashuvi va yanada yuqori darajalarga ko‘tarilishi, jismoniy madaniyatni rivojlantirish, xalq milliy o‘yinlarini qayta tiklash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo‘yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlarini oshirish maqsadida ko‘plab qabul qilgan farmon va qarorlari mamlakatimizda sport sohasini ommalashtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.[4]

Biz xalqaro sport maydonlarida yangi O‘zbekiston nufuzi va obro‘-e’tiborini oshirishga katta hissa qo‘sigan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e’tibor berishimiz kerak. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog‘ligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e’tibor qaratilmoqda.[5]

Milliy kurash sport turi bilan shug‘ullanishda, barcha jismoniy sifatlarni rivojlanishi kuzatiladi. Organizmning turli organ va tizimlari faoliyati kurash sport turi bilan shug‘ullanishda yaxshilanadi va rivojlanadi. Shuning uchun yurtimiz aholisining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda, kurash sport turi hozirgi kunda asosiy omillardan hisoblanadi. Bundan tashqari, kurash bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda, amaliy va nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallahsga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

“Yangi O‘zbekistonda” “Milliy Kurash” obro‘sni va darajasini oshirish bo‘yicha ishlar yetarlicha olib borilayotganligi, yuqori malakali va sport zaxiralari tayyorgarligini tashkil etish va mazmuniga yetarli darajada ahamiyat berilmayotganligi ko‘p bor bayon etilgan. .[6]

Bugungi kunda Kurashning dunyo arenasida shiddatli rivojlanayotganligiga hamda O‘zbekiston Kurashning ustuvor sport turi sifatida ommaviylashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohatlar amalga oshirilmoqda.

Shu jumladan kurashning shunchaki sport turigina emas, balki insonning u orqali jamiyatning nafaqat jismoniy, ma’naviy kamolotga erishishida ham salmoqli omil ekanligini inobatga olib, ulug‘ bobokalonlarimiz uni tarbiya maktabi deb ataganlar. Milliy kurashda kurashchilar-kurashchilardan jasurlik, qat’iylik, xalollik, to‘g‘rilik, mardlik va poklik singari yuksak fazilatlarni namoyon etishni talab etar ekan, bu o‘z navbatida ularning zimmasiga katta mas’uliyat hissini xam yuklaydi. Zero, boshqalarga ibrat- namuna ko‘rsatadigan bu toifaga mansub kishilar avvalo o‘z shaxsini jismonan va ruxan takomillashtirib, yetuklik va komillik sari doimiy xarakatlanib borishlari zarur bo‘ladi. Milliy kurash o‘ziga xos nozik xunar, ilm-u odob qorishmasi, uyg‘unlashuvi bo‘lib, bunda ustoz va shogirdlar o‘rtasidagi o‘zaro samimiylilik, xamkorlik, do‘stona munosabat ko‘p narsani belgilaydi.

Ushbu masala yuzasidan Abu Ali ibn Sino bobomiz shunday yozadi: “Kurash” xar hil turlardan iborat bo‘lgan. Shulardan bittasi ikki erkak bir-birlarining belbog‘larini ushlab o‘ziga tortadi va har biri o‘z raqibidan qutilishga harakat qiladi. Lekin biri boshqasini quchoqlaydi. Bunda raqibning o‘ng qo‘li yelka ustidan, chap qo‘lini pastdan o‘tkazadi. Keyin raqibini o‘ziga tortadi. Kurashning yana bir turi bir-biriga oyoq chalish usuli bilan raqibni yiqitishi haqida aytildi.[7]

Hozirgi O‘zbekiston hududida Milliy kurashning ikkita turi shakllangan: raqib belbog‘ini oldindan ushlab olish va raqibni erkin ushlab olish. Kurashning birinchi turi “Farg‘onacha”, ikkinchisi - "Buxorocha" usul deb nomlanadi. Kurashning bu turlari hozirgi kunda ham respublikamizda keng tarqalgan. Ushbu turlar bo‘yicha respublika,

Osiyo va xalqaro musobaqalar o‘tkaziladi. Hozirgi kunda Farg‘onacha usul belbog‘li kurash hamda Buxorocha usul kurash keyinchalik kurash deb yuritilib kelinmoqda.

“Yangi O‘zbekistonda” Milliy kurash sportning muhim turi sifatida rivojlanib bormoqda. Uning moddiy bazasi uzluksiz yuksaltirilib, sportchilar uchun maqbul shart-sharoit yaratib berilmoqda. Respublikamiz polvonlari ham bu g‘amxo‘rlik va imkoniyatlarga javoban kurashning Yevropa Osiyo, dunyo championatlarida yuqori ko‘rsatkichlarga erishib, Respublikamiz sport sharafini munosib himoya qilmoqdalar. Milliy kurash bilan kichik yoshdan shug‘ullanish lozimligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Chunki sportchiga muvaffaqiyat keltirilgan epchillik, chaqqonlik, kuchlilik, tezkorlik, murakkab vaziyatlarda sanoqli soniyalarda eng maqbul yechim topish dadilligi kabi jismoniy sifatlar bolalarning ilk yoshidan shakllanib boradi. Milliy kurash ommalashib bormoqda va 7 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan xotin-qiz va erkaklar o‘rtasida ommalashishida ustoz-murabbiylarni xamda professor o‘qituvchilarning hissasi kattadir. Milliy kurashning Buxorocha turi regional xususiyatga ega bo‘lib, takomillashib bormoqda. Kurash deganimizda faqat kurash tushuvchilar, kurash musobaqalari ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Lekin kurashchini yuksak darajaga chiqarish uchun trener-murabbiylar o‘ziga xos mas’uliyat bilan faoliyat ko‘rsatishlari joizdir.

Kurashchilarda jismoniy tayyorgarlik bilan birga kuch, chaqqon, tezkorlik, egiluvchanlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarini oshirib borib, ularning ma’naviy va irodaviy sifatlari hamda maxsus ruhiy imkoniyatlarini takomillashtirish lozim.

Shu bilan birga Jismoniy madaniyatni har kungi turmushga muntazam ravishda singdirish ishlab chiqarish gipodinamiyasining yomon ta’sirini yo‘qotadi, jismoniy sifatlarni rivojlantirib, insonni har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltiradi. [8]

## XULOSA

Yangi O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sportni ommalashtirish va jahon miqyosiga ko‘tarish, milliy kurashni yanada rivojlantirish va aholini sog‘lom turmush tarziga targ‘ib qilish, o‘sib kelayotgan bolalarga milliy sport turlarimizni o‘rgatish va ularni mahoratlarini yanada oshirish va bu borada yetarlicha islohatlar olib borilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sport sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil-2 oktyabrdagi PQ-3306-son "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907- son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'limgarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-martdagi 122-son "Sport turlari bo'yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining "Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2022-yil 18-fevraldagi 136-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. Kerimov F.A Sport kurashi nazaryasi va uslubiyoti. UzDJTI nashriyot-manbaa bo'limi. 2018.198-190
7. Kerimov F.A Yakka kurash elementlariga ega bo'lgan harakatli o'yinlar. Ilmiy texnika axboroti-press, 2020.-79 b
8. Kerimov F.A Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Toshkent, 2021,334 b